

ISTIQLOL YILLARIDA SAID AHMAD IJODI

Bolqiyev Ahmad Begali o'g'li

JDFU o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Said Ahmadning O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng yozgan asarlari tahlili haqida so'z boradi. Maqolada shuningdek, mustaqillik davri o'zbek milliy adabiyotidagi o'zgarishlar haqida ham so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Mustaqillik, istiqlol davri o'zbek adabiyoti, "Qorako'z majnun", milliy asar tili*

Said Ahmad istiqlol davrida "Qorako'z majnun", "Kiprikda qolgan tong" nomli asarlar to'plamlari bilan adabiyotimiz rivojiga sezilarli hissa qo'shdi. Ayniqsa adibning "Qorako'z majnun" deb nomlangan hikoyalar to'plami o'zining realistik kuchi, badiiy jihatdan pishiq-puxtaligi, sobiq sho'rolar davri siyosatining turli kirdikorlarini yuqori saviyada badiiy gavdalantirganligi bilan alohida e'tiborga sazovor bo'ldi.

Analitik tasvirga moyillik adib ijodida yetuk realizmga xos yana bir fazilatning shakllanishiga olib keldi –uning qahramonlari murakkab tabiatli shaxslarga aylana boshladi. Shaxsga xilma-xil tomondan yondashish, hodisaning ham musbat, ham manfiy tomonlarini yodda tutishga intilish, odamni osongina "yaxshi" va "yomon" ga "ijobiy" yoki "salbiy" qahramonlarga chiqarib qo'yishdan o'zini tiyish, inson qalbini his etgan holda qalam tebratish –adib ijodining yo'nalishini ko'rsatib beradi.

Ushbu to'plamdan joy olgan "Qorako'z majnun" hikoyasi o'zbek onalariga xos bo'lgan xarakterni ochib berish barobarida, sobiq sho'rolar davri siyosatining qurboni bo'lgan o'zbek millati farzandlarining ham ayrim qirralarini o'zida aks ettirgan. Uning qahramonlaridan biri Bo'rixon Rossiya o'lkasida harbiy xizmatni o'taydi va o'sha yurtda bir rus rohibining qiziga mehr qo'yadi. O'rtada diniy tafovutlar bo'lganligi sababli rohib o'z qizini Bo'rixonga berishdan bosh tortadi. Natijada Bo'rixon nasroniylik dinini qabul qiladi va rus qiziga uylanadi.

Muallif mazkur voqealarni tasvirlash barobarida Bo'rixonning shu ahvolga kelib qolishiga o'sha davr mafkurasi va siyosatini bosh sababchi qilib ko'rsatmaydi, aksincha xulosa chiqarishni o'quvchiga qoldiradi. Chunki, Bo'rixon bog'chadan, maktabdan dinsizlikka, qadriyatlarimizga bo'lgan hurmatsizlik ruhida tarbiyalanganligini hamma biladi. Zero, sobiq sho'rolar davrida diniy qadriyatlar umuman qoralanar, unga rioya qilganlar esa ayovsiz jazolanar edi. Hikoya qahramoni Bo'rixon xuddi shu jamiyatda tarbiyalangan, unga diniy qadriyatlarning umuman ahamiyati yo'q, sababi unga nasroniylikmi, musulmon dinimi ahamiyati yo'q. Shuning uchun ham hech ikkilanmasdan nasroniylikni qabul qiladi. Muallif

hikoyaning hech bir o`rnida Bo`rixonni aybdor sanamaydi, voqelikni xolis tasvirlashga harakat qiladi.

Mustabidlikka asoslangan har qanday saltanatda nazorat va nazoratchilik ishlariga haddan ziyod ko`p kuch sarflangan. Shaxsiyati erkinlikka, hurlikka moyil har bir odamning qadami kuzatilgan, fikr va so`zlari har doim taftish qilingan. Hukmron mafkura xohlagan narsasini ko`rib, istaganini eshitib, hamma joyda hoziru noziriligini bildirib turgan. Zero, qullik va qaramlik muhitida amaldorlarning ruxsati va aralashuvisiz bir qadam ham yurib bo`lmagan. Nihoyat, shunday bir qo`rquv, tahluka jarayoni barpo qilinganki, hatto ko`chadagi gado ham gadoychilik qilib yurgani uchun, albatta, davlat amaldorlarini duo qilgan. Muallif shu kabi nohaqliklarning sabablarini asar davomida axtaradi. Hech shubhasiz aytish mumkinki, Bo`rixon obrazi- o`zbek adabiyotida o`ziga xos badiiy kashfiyotdir. Bo`rixon sovet davri adabiyotida zavq bilan qalamga olingan mehnat qahramonlariga parodiya tariqasida yaratilgan. U- qizil impyeriya, totalitar tuzum tarbiyalab yetishtirgan "yangi davr farzandi", mustabid hokimiyat munofiqona mafkurasining tirik qurboni.

Hikoyada Bo`rixon obrazi bilan zid tarzda it obrazi-Qorako`z Majnun obrazi ham tasvirlangan.

Hikoyadagi it obrazi asardagi vafo va sadoqat timsoli sifatida gavdalantiriladi. Asar bosh qahramoni Saodat aya ayrim vaziyatlarda farzandlariga Qorako`z Majnunning o`rnak qilib ko`rsatadi.

Hikoyaning yana bir o`rnida Saodat aya qizi Qumrixondan xafa bo`lib: "-Qo`y urishma, opasi, Qorako`z hali bola-da!

-Nima deyapsiz, oyijon! Bu it o`lgurga nega men opa bo`larkanman!- dedi Qumrixon nolib.

-Agar Qorako`zni yana supurgi bilan ursang, unga kosov otsang, bilib qo`y, ukalaringnikiga ketib qolaman."¹

Hikoyada Qorako`z Majnun asosiy sujet liniyasini harakatga keltiruvchi qahramon sifatida tasvirlanadi. Saodat aya Qorako`z Majnun bilan xuddi o`z farzandi kabi suhbatlashadi, qayerga borsa u bilan birga yuradi. Bosh qahramon Saodat aya o`z yaqinlari, farzandlaridan ko`ra olmagan sodiqlikni Qorako`z Majnundan ko`radi. Muallif qahramonlar xarakterini ochishda o`ziga xos yo`l tutadi. Misol uchun, Bo`rixon xarakterini yoritishda muallif hech bir o`rinda uning o`y-xayollari haqida so`z yuritmaydi. Hikoya davomida uning xatti-harakatlari, o`zini tutishi Bo`rixonning qanday inson ekanligini yaqqol namoyon etadi. Bo`rixon hech bir o`rinda salbiy qahramon sifatida ta`riflanmasada, hikoya davomida uning munofiqligi yaqqol aks etadi. Muallif birgina Saodat ayaning o`g`li Bo`rixon bo`ynidagi xochni ko`rishi kitobxonda unga nisbatan nafrat tuyg`usini uyg`otadi.

Said Ahmad

¹ Said Ahmad Qorako`z Majnun-T: O`zbekiston, 2013 yil 89-bet.

"INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION: WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION"

Said Ahmad ijodi istiqlol yillarida ham o`zining milliy ruhi, millat turmush tarzini haqqoniy aks ettirganligi bilan o`z ahamiyatini saqlab qoldi. Adibning "Kelinlar qo`zg`oloni" deb nomlangan hajviy asari istiqlol yillarida ham bir necha bor sahnalashtirildi hamda adabiyotshunoslar tomonidan tadqiq qilindi.

Hammamizga ma'lumki, "Kelinlar qo`zg`oloni" komediyasida o`zbek oilalariga xos bo`lgan turmush tarzi, kundalik hayotda uchrab turadigan ayrim salbiy va ijobiy voqealar, millatimizga xos bo`lgan bolajonlik, andisha, milliy g`urur kabi fazilatlar samimiy kulgi vositasida tipik obrazlarda aks ettirilgan.

Asarning bosh qahramoni Farmonbibi komediyada muallifning asosiy badiiy niyatini yuzaga chiqaruvchi hamda voqealar rivojidadagi yetakchi kuchlardan biri bo`lib hisoblanadi. Komediyanavis ushbu obraz orqali sof o`zbyekona milliy turmush tarzi va o`zbek onalariga xos bo`lgan tipik xususiyatlarni ko`rsatib bera olgan. Hayotimizda aynan Farmonbibiga o`xshagan qaynonalar bo`lmasligi mumkin, lekin unga xos bo`lgan sifatlar har bir o`zbek qaynonasida bo`lishi tabiiy. Xuddi shu jihatdan olinganda Farmonbibi obrazining hayotdagi shunday qaynonalarda uchrovchi xislat va xususiyatlarni umumlashdirib aniq shaxs timsolida talqin qilinganligi asarning ayni voqyelik bilan hamnafasligini ham ta'minlagan.

Darhaqiqat, Farmonbibi o`zbek adabiyotidagi tipik qaynona obrazlarining eng sara namunalaridan biri, desak xato bo`lmaydi, chunki uning har bir xatti-harakatida, so`zlashida oila axilligini ta'minlash, farzandlarini halollikka, to`griso`zlikka da'vat etish, bolajonlik, oriyatni hamma narsadan ustun qo`yish kabi sof o`zbyekona qadriyat va an'analar yaqqol syezilib turadi. Shuning uchun ham Farmonbibining kelinlariga hamda o`g`illariga bo`lgan munosabatini ifodalashda dramaturg uning xarakter xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yo`l tutadi. Bevosita asarga murojaat qiladigan bo`lsak, unda ilgari surilgan muallifning asosiy badiiy niyati maishiy hayotda, ya'ni oilaviy munosabatlarimizda saqlanib kelayotgan ba'zi nuqsonlarni qoralash hamda milliy turmush tarzimizning o`ziga xos jihatlarini ma'qullash singari ijobiy g`oyalarda o`z aksini topadi. Komediyanavis asarning umumiy ruhidan kelib chiqqan holda, bu g`oyalarning ifodachisi sifatida ijobiy obrazlarni tanlagan, ularning asar syujetidagi faol harakatlari misolida maishiy hayotimizda uchrovchi ijobiy hamda ayrim salbiy voqealarga o`z munosabatini bildirib o`tadi. Asardagi kulgi asosan qaynona bilan kelinlar o`rtasidagi komik konflikt vositasida keltirib chiqariladi. Muallif Farmonbibining zamonaviy yoshlarni tushunmasligini yyengil yumoristik ruhda ifoda etadi va bu orqali ma'lum ma'noda shu zamonaviy yoshlarni ham milliy qadriyat va an'analarni hurmat qilishga da'vat qiladi. Adabiyotshunos olim Hafiz Abdusamatov asar haqida fikr yuritir ekan, jumladan quyidagi mulohazalarni bayon etadi: qarab yo`l olgan eski odatlar, bolalar va kelinlarni barcha sohalarda onaga tobye qilib tarbiyalash, ularning erkin yashash, o`zlaricha harakat qilish hollariga chyek qo`yish kabilarni muallif masxara qiladi, ular ustidan baralla kuladi, sarqitlarga qarshi o`t ochadi. Komediyan

tyeranroq o`qib chiqqan kitobxon shu narsaga amin bo`ladiki, adabiyotshunos Hafiz Abdusamatov ta'kidlaganidyeq, asar muallifi hyech bir o`rinda bu kabi milliy urf-odatlarimiz "ustidan baralla" kulmaydi, ularga o`t ochmaydi, ularni "sarqitlar" sifatida talqin etmagan. Agarda asarga ob'yekt bo`lib xizmat qilganda shu urf-odat va an'analarimiz sarqit yoki eski odat bo`lganida edi ular allaqachon inqirozga yuz tutgan bo`lar edi. Vaholanki, bu kabi qarashlar noto`g`ri ekanligini hozirgi davr maishiy hayotimiz ham tasdiqlaydi. Bizningcha, asar muallifi bu kabi o`zbyekona milliy qadriyatlarimiz ustidan kulmoqchi emas, aksincha davr voqyeligini shundayligicha ko`rsatish orqali ularni ulug`lagan va yoshlarni ham shunday ruhda kamol topishga hamda milliy an'analarimizning asl mohiyatini teranroq anglab yetishga chorlamoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Said Ahmad Qorako'z Majnun -T: O'zbekiston, 2013.
2. Saylanma [3 j.li], 1982.
3. Tanlangan asarlar [3 j.li], T., 2000.

